

=====

**“AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARI VA O‘ZBEKISTON TA’LIM
TIZIMLARINI TAQQOSLASH”**

Arziqulova Iroda

Samarkand state institute of foreign language

Faculty of English philology Group: 24-24

*Scientific supervisor: **Pardayeva Aziza***

a senior teacher at Samarkand State Institute of Foreign Languages

+998337725566

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 12.12.2025

Revised: 13.12.2025

Accepted: 14.12.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*Ta’lim, O‘zbekiston, AQSh,
Taqqoslash, Usullar, Baholash,
Texnologiya, Oliy ta’lim*

*Mazkur maqolada Amerika Qo‘shma
Shtatlari va O‘zbekiston ta’lim tizimlari
o‘rtasidagi asosiy farqlar va o‘xshashliklar
tahlil qilingan. Ta’lim tizimining struktura,
metodlar, baholash mezonlari, texnologik
imkoniyatlar va oliy ta’limdagi yondashuvlar
taqqoslab beriladi. Tadqiqotdan maqsad —
ikki mamlakat tajribasini solishtirish va har
bir tizimning afzalliklarini aniqlashdir.*

Iqtisodiy va boshqa barcha yo‘nalishlarda mustaqillikka erishishni maqsad qilgan har qanday davlat uchun ta’lim sohasining ahamiyati nihoyatda kattadir. Bizningcha, O‘zbekiston bu maqsad sari hali uzoq yo‘l bosishi kerak. Yaqin yillarda mamlakatda yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar natijasida hukumat ta’limning strategik ahamiyatini anglay boshladi, biroq amalga oshirilgan ishlar hali juda cheklangan. Oldin taraqqiyotning sustligi avlod ehtiyojlarini yetarli anglamaslik, o‘quvchi talablarini chuqur tushunmaslik bilan bog‘liq edi. Maktab va oliy ta’lim muassasalari rahbarlari asosiy vazifalarni to‘g‘ri belgilay olmagan sabab ta’limning asl maqsadi chetga surilib ketdi. Natijada o‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni va nufuzi sezilarli ravishda pasaydi, va bunday oqibatlar bugun yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida O‘zbekiston boshqa mamlakatlarning tajribasini ko‘proq ko‘chirib, ularni to‘liq holatda joriy etishga harakat qildi. Ammo muammo shundaki, chet el tizimlarining ichki kamchiliklari yetarli tahlil qilinmadi, ular qaysi sharoitda samarali bo‘lishi yoki bo‘lmasligi chuqur o‘rganilmadi. Shu sabab, import qilingan ta’lim modellari o‘zimizdagi muammolarni takrorlab qo‘ydi va kutilgan natija bermayapti.

Ushbu maqolada men AQSh ta'lim tizimidagi asosiy nuqson va kamchiliklarga e'tibor qaratmoqchiman. Amerika ta'limi ko'plab ichki muammolar tufayli kutilgan darajada samarali ishlamayapti. Ta'lim siyosatini shakllantirish jarayonida siyosiy va ijtimoiy tafovutlarning haddan ziyod aralashib ketishi tufayli o'quvchi-talabalarning xilma-xilligiga mos yondashuvlar, ularga to'g'ri muloqot qilish yoki ziddiyatlarni bartaraf etish bo'yicha aniq va foydali usullar taklif etilmayapti. Buning ustiga, maktablarda firibgarlik holatlari, baholash tizimidagi nomutanosibliklar va adolatsizliklar kabi aniq muammolar ham yetarlicha hal qilinmayapti.

Ko'pincha bu muammolar AQSh ta'lim tizimi kelajagi bo'yicha muhim qarorlarni qabul qilishga siyosatchilarning istagi va imkoniyati yetmayotgani bilan bog'liqdek ko'rinadi. Muhim masalalarni hal qilish o'rniga, vaqt ichki kelishmovchiliklarga va samarasiz bahslarga sarflanmoqda. Aslida esa e'tibor tizimning haqiqiy sifatiga ta'sir qiladigan, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalashga xizmat qiladigan ustuvor masalalarga qaratilishi kerak. Kamroq muhim siyosiy mavzulardagi munozaralar esa ta'lim sifati yaxshilangach hal etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu tarzda, AQSh ta'lim tizimida mavjud muammolar va zaif tomonlar tizimli yondashuv, adolatli baholash, xilma-xillikka moslashtirilgan o'qitish va boshqaruvdagi muvofiqlik yetishmayotganini ko'rsatadi.

Har bir shtatda o'z o'quv dasturlari va standartlari mavjud va bu ko'p hollarda talabalar orasida standartlarning bir-biridan farq qilishiga olib keladi. Bu kattaroq muammo tug'diruvchi masala, chunki Amerikada umumiy yagona ta'lim tizimi mavjud emas; ba'zi talabalar "maktabdan — qamoqqa" tizimi domiga tushib ketadi. Afsuski, katta shaharlarda yuqori sinflar maktablariga qatnagan qora tanli yigitlarning yarmidan ko'pi diplom ola olmaydi; maktabda bandlik bilan o'tkazadigan vaqt ularning xitoylik tengdoshlarinikidan achinarli tarzda kam; ota-onalar yetarlicha jalb qilinmaydi. Ehtimol, o'qituvchilarga bog'liq bo'lmagan masalalarning eng ayanchlisi shu bo'lsa kerak. O'quv jarayonida ota-onalarning qatnasha olmasligi kasbiy karera-o'sish talablari va maktabga haddan ortiq tobelik, bog'liqlik yuqori sinf maktablari o'quvchilarini ham xavf ostiga qo'yadi;

Maktablarda o'quvchilar soni haddan ortiq ko'p. Sinfda bolalar soni qancha kam bo'lsa, talabalarning individual ta'lim olishi shuncha yaxshi bo'ladi. Muvaffaqiyatga erishish uchun bolalarga avvalgidan ko'proq e'tibor talab qilingan vaqtda, sinfda bolalarning juda ko'pligi o'qish, ta'lim olishni yanada mushkullashtirib yubormoqda va o'qituvchilarning samarali ishlashlarini bundanda qiyinlashtirmoqda;

O'qituvchilar ta'limga yangiliklar qiritishi kuzatilmaydi. Buning sababi oddiy: agar talabalar o'zgarayotgan bo'lsa, o'qituvchilar ham o'zgarishlari kerak. Amerikada davlat ta'limi tizimiga muayyan talabalar guruhlarining talab-ehtiyojlariga mos keladigan, masofali o'rganishning zarur rolini tushunadigan, va sinfda o'zgarishlarni amalga oshirishga

yordam berish uchun ovozlarni baralla qo'yib talab qila oladigan, yaxshi tayyorlangan o'qituvchilar kerak;

Talabalarning 80 foizi yuqori sinf maktablarini bitirishmoqda biroq ularning yarimidan kamrog'igina ta'limning bundan keyingi bosqichiga o'tishga tayyor xolos. Muammoning mazmuni talabalarning orqada olib qolib turish lozim bo'lgan bir paytda, ularning keyingi sinfga o'tkazilishi, va undan keyin ushbu sinf darajasiga mos ishlarni bajara olmasdan va sinfdoshlarining bilim darajalaridan orqada qolib ketishlaridan iborat;

Standartlashtirilgan testlar va o'quv kitoblari mamlakat miqyosida tegishli tarzda me'yorlashtirib, baho qo'yilganda, davlat o'quv dasturlari va davlat test-imtihonlari maqsadga muvofiq bo'la olmaydi;

Bugungi kunda xalq ta'limi natijalarga yo'naltirilmagan;

Mavjud bahslarga ko'ra, talabalardan yuqori standartlar talablariga javob berish talab qilinmaydi, va ta'lim jarayoni siyosatdonlar doirasida ta'lim natijalarini tahlil qilishda muhimroq;

Universitetda tahsil olishga intilmaydigan talabalarning ta'lim olishiga ko'proq e'tibor berish talab qilinadi;

Ba'zan baholash tizimi talabaning haqiqiy kuchli va zaif tomonlari holatini ko'rsatib bera olmaydi;

Yuqori sinf maktablarida ta'lim olish narxining tobora oshib borishi universitetlarda tahsil olishni xohlaydigan Amerika talabalarining sonining pasayishiga olib keldi. Zamonaviy Amerika ta'lim tizimida jiddiy muammolar mavjudligi voqelik. Agar biz zamonaviy ta'lim tizimi bizning ta'lim tizimimizni o'zgartirishini xohlasak, boshqa mamlakatlarning ta'lim tizimi, o'zimizning ta'lim tizimimizning xaloskori bo'ladi deb hisoblashni bas qilishimiz kerak. Biz amalda mavjud tizimlarni to'laligicha emas, balki eng yaxshi amaliyotlarni tahlil qilib, joriy qilishimiz lozim, chunki chet mamlakatning ta'lim tizimiga jiddiy bog'liq bo'lish noto'g'ri bo'lishi mumkin, chunki bizda xodim-kadrlar, inson kapitali, logistik ko'mak, moliyaviy zahiralar va texnologiyalar kabi sharoitlar ularniki bilan bir xil bo'lmasligi mumkin.

Amerika Qo'shma Shtatlari va O'zbekiston ta'lim tizimlari tuzilishi, mazmuni va qo'llaniladigan metodlar jihatidan sezilarli farqlarga ega. Bu farqlarning shakllanishida har ikki davlatning iqtisodiy sharoiti, tarixiy rivojlanish yo'li va ta'lim borasida olib borilgan siyosiy qarorlar muhim rol o'ynaydi. AQShda ta'lim 12 yil davom etib, Elementary, Middle va High School bosqichlaridan iborat bo'lsa, O'zbekistonda 1-11-sinflarni o'z ichiga olgan majburiy o'qish amalga oshiriladi. Amerika maktablarida o'quvchilarga robototexnika, biznes, IT, san'at va dizayn kabi ko'plab tanlov fanlari taqdim etiladi. O'zbekistonda esa tanlov imkoniyatlari nisbatan cheklangan bo'lib, asosan asosiy fanlar majburiy sanaladi, biroq so'nggi yillarda STEAM yo'nalishlariga qiziqish ortib bormoqda. Texnologik jihozlanish bo'yicha AQSh maktablari ancha rivojlangan: kompyuter, planshet, interaktiv

doska va turli onlayn platformalar keng qo'llanadi. O'zbekistonda ham texnologiyalar joriy qilinmoqda, ammo bu barcha hududlarda bir xil darajada emas. O'qitish metodlariga kelganda, Amerikada amaliy mashg'ulotlar va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi, O'zbekistonda esa an'anaviy ta'lim usullari hali ham ustuvor bo'lsa-da, yangicha yondashuvlar bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Baholash tizimi ham ikki mamlakatda farqlanadi: AQShda A–F reytingi qo'llanilib, baho o'quvchilarning yillik faoliyati asosida shakllanadi, O'zbekistonda esa 5 ballik tizim saqlangan bo'lib, test, og'zaki va yozma nazoratlar orqali baholash amalga oshiriladi. Oliy ta'lim borasida Amerika universitetlari xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan, ammo ta'lim narxi juda yuqori; O'zbekistonda esa o'qish nisbatan arzon va ko'plab xorijiy universitetlar filiallari faoliyat yuritmoqda. Shu tariqa, har ikki mamlakat ta'lim tizimi o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega bo'lib, ularni solishtirish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U.S. Department of Education. Education in the United States: Overview and Structure. Washington, 2023.
2. National Center for Education Statistics (NCES). The Condition of Education 2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'lim tizimi bo'yicha normativ hujjatlar, Toshkent, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Ta'lim sohasidagi islohotlar to'plami, 2022.
5. UNESCO. Global Education Monitoring Report, 2024.
6. Karimov, M., O'zbekiston ta'lim tizimida modernizatsiya jarayonlari. Toshkent, 2021.
7. Smith, J. Comparative Education Systems: USA vs Central Asia. New York, 2022.